“Sirlar siri kitobi” asari o’zbek tilida nashr etildi

Navoiy kon-metallurgiya kombinati rahbariyati tashabbusi bilan Abu Bakr Muhammad ibn Zakariyo ar-Roziyning “Kitob sirr al-asror” asari o’zbek tilida (“Sirlar siri kitobi”) nashr etildi.

Ushbu monografiya Ubaydulla Karimov muallifligida rus tilida bir necha marta chop etilgan bo’lib, kimyo, kon-metallurgiya sohasi uchun qimmatli asar hisoblanadi.

Ushbu monografiya Navoiy kon-metallurgiya kombinati mutaxassislari va O’zR FA Sharqshunoslik instituti olimlari hamkorlikda o’zbek tiliga tarjima qilinib, kitobxonlar e’tiboriga havola etildi.

Monografiya mutaxassislar, tadqiqotchilar hamda oliy o’quv yurtlari talabalari uchun mo’ljallangan.